



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



**No 7**  
**2025**

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiyaga fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 102 sahifa,  
1-iyul, 2025-yil.

## BOSH MUHARRIR:

Umarova H. O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

## BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Umarova H.O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiiev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'idoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor

G'aurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)

Somurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'icha falsafa doktori (PhD)

Panjayev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'inining birinchi o'rinnbosari

Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**

Umarova H. O'. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Rector of the Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan

**EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

*Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician*

*Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician*

*Umarova H.O'. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan*

*Qirg'izboev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*

*Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Nabiiev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor*

*Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)*

*Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)*

*Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)*

*Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)*

*Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)*

*Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)*

*Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor*

*Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)*

*Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor*

*Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor*

*Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service*

*Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor*

*Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)*

*Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor*

*Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor*

*Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics*

*Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology*

*Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region*

*Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun*

*Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences*

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali Oliy attestatsiya komissiyasining 26-08-2024-yildagi №11-05-4381/01-Kengash tavsiyasiga ko'ra, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning tadqiqot ishlari yuzasidan dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Asos: OAK Pedagogik texnologiyalar va psixologik tadqiqotlar bo'yicha ekspert kengashi tavsiysi (29-10-2024-y.; №10); OAK Tartib-qoida komissiyasi qarori (30-10-2024-y., №10/24); OAK Rayosatining qarori (31-10-2024-y., №363/5).

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №136361

# MUNDARIJA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy bilimlarini shakllantirish.....	16
Nazarov Odil Omanqulovich	
"Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiysi"da ijtimoiy-pedagogik hamkorlikning o'rni .....	20
Abirova Umida Nazarovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarini oldini olish va uning ahamiyati .....	23
Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li	
Pedagogik jarayonda axloqiy qarashlarni shakllantirish usul va vositalari .....	27
Xudoykulova Shaxlo Mamaniyozovna	
Maktabgacha ta'lif tashkiloti tarbiyachilarining ijodkorligini rivojlantirishda ta'limi o'yinlarning ahamiyati .	31
Salimova Dilmira Farkodovna	
Aholining iqtisodiy axborot savodxonligini oshirishdagi muammo va kamchiliklar .....	34
Rajabov Asliddin Xolmirzayevich	
Favqulodda vaziyatlar yo'naliishi ta'limida muloqotning ahamiyati.....	37
Boltayev Baxtiyor Yunusovich	
Biologiya ta'limi va raqamli texnologiyalar .....	41
E. Po'latova	
Boshlang'ich ta'limga tayyorlov guruhi bolalarini kasbga yo'naltirishda stem yondashuvining ahamiyati ....	44
Egamova Ravshanoy Surobjonovna	
O'zbekiston TIMSS natijalarini qanday yaxshilashi mumkin?	
Innovatsion ta'lif yondashuvlari va samarali strategiyalar.....	48
G'ayniddinov Shayxislom Tolibjon o'g'li	
Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda mutaxassislar hamkorligi .....	53
Isayeva Mushtari Alisher qizi	
Developing Student's Critical Skills Through Technology-Enhanced English Lessons .....	56
Mavlonova Dildora Shuxrat qizi	
Bahrom Ro'zimuhammad she'rlarini o'qitishda integratsiya usulidan foydalanish .....	60
Nomozova Dilobar Suyun qizi	
Aksiologik yondashuvlar asosida bo'lajak pedagoglarda altruizm ko'nikmalarini shakllantirish:	
bosqichlar va tamoyillar .....	65
Norboyeva Moxigul Shavkat qizi	
3D Modeling of Virtual Chemical Laboratories .....	68
Qayumov Jamshid Ma'rufjon o'g'li	
Fostering Metacognitive Skills in Efl Learners Through Ai-Supported Instruction:	
a Review of Recent Literature .....	73
Ruzieva Miftuna	
Onlayn va gibrid ta'lif sharoitida mashinasozlik texnologiyasi faniga	
qiziqishni oshirishning nazariy asoslari.....	78
Sarimsakova Soxibaxon Raxmonjanovna	
Loyihalashtirilgan integral darslar samaradorligi	
(9-sinflar uchun "metallar va ularning umumiy xususiyatlari" mavzusida) .....	81
Sharipova Hakima Shavkatovna	
Metacognition and Self-Regulated Learning .....	85
Turayeva Nazira Ibragimovna	
Методические возможности совершенствования обучения научной	
письменной речи на основе коммуникативно-деятельностного подхода .....	88
Меденцева Наталья Петровна	
Transformatsion jarayonlarda tibbiyot oliy ta'lif muassasalari	
raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari .....	93
Jonibekov Jasur Jonibekovich	
O'zbek milliy musiqasi: boy madaniyat va san'atning ajralmas qismi.....	98
Rustamova Maxsuma Farxodbek qizi	



# MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA UCHRAYDIGAN NUTQ NUQSONLARINI OLDINI OLISH VA UNING AHAMIYATI

Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li

Farg'onha davlat universiteti  
Maktabgacha ta'lif kafedrasi o'qituvchisi



**Annotatsiya:** Maktabgacha yosh davrining o'ziga xos jihatlari va ushbu davrda uchraydigan nutq nuqsonlari yoritilgan. Bolaning ushbu davrni samarali o'tishi uchun ota-onalar va logoped-defektologlar tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, nutq nuqsonlarining bola rivojlanishiga ta'siri ilmiy asosda tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** nutq nuqsoni, maktabgacha yosh, dislaliya, bosh miya, mayda qo'l motorikasi, og'zaki muloqot.

**Abstract:** This article examines the peculiarities of the preschool age and the speech disorders commonly observed during this developmental period. It highlights the importance of the role of parents and speech therapists in supporting the child's speech development. The paper also analyzes the impact of speech defects on the overall development of the child.

**Key words:** speech disorder, preschool age, dyslalia, brain, fine motor skills, verbal communication.

**Аннотация:** В статье рассматриваются особенности дошкольного возраста и речевые нарушения, характерные для этого периода. Отмечена важность участия родителей и логопедов-дефектологов в коррекционной работе для успешного преодоления трудностей развития речи у детей. Проанализировано влияние речевых дефектов на общее развитие ребёнка.

**Ключевые слова:** речевые дефекты, дошкольный возраст, дислалия, головной мозг, мелкая моторика рук, устная коммуникация.

## KIRISH

Inson rivojlanishida har bir yosh davrining o'ziga xos ahamiyati mavjud. Ayniqsa, maktabgacha yosh davri bolaning jismoniy va ruhiy kamoloti uchun muhim bosqich hisoblanadi. Bu davrda bola har tomonlama rivojlanadi va ayni paytda ayrim nutq nuqsonlari, jumladan, dislaliya keng tarqalgan holat sanaladi. Dislaliya – bu eshitish va inervatsiya saqlangan holatda tovushlarning noto'g'ri talaffuz qilinishi bilan tavsiflanadigan nutq buzilishi turidir. M. Ayupova (2007) ma'lumotlariga ko'ra, dislaliya 5 yoshli bolalar orasida 41,5 foizni, 6 yoshli bolalar orasida esa 22,9 foizni tashkil etadi. Bu buzilishlar asosan R, L, S, Z, SH, CH, K, G, Q, G', X, J, Y va boshqa tovushlar talaffuzida uchraydi. Tovushlarning noto'g'ri talaffuzi maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Nutqiy nuqsonning mavjudligi ota-onalar va pedagoglardan bolaga kompleks yondashuvni talab etadi. Chunki bolaning kelajagi, avvalo, uning o'zi va ota-onasi uchun katta ahamiyatga ega. Tovushlar talaffuzidagi buzilishlarning oldini olishda ota-onalar bolalar bilan ko'proq og'zaki muloqot qilishi, ularning hissiy ehtiyojlarini to'liq qondirishi lozim. Nutq, asosan, taqlid asosida shakllanadi. Shuning uchun bola nutq nuqsonlariga duchor bo'lmasisligi yoki mavjud nuqsonlarni bartaraf etishda ota-onaning to'g'ri va ravon nutqi muhim omil hisoblanadi. Logoped tomonidan olib borilgan mashg'ulotlar va bola uchun tayinlangan uy vazifalari ham uning nutqiy rivojlanishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

ДОШКОЛЬНОЕ

PRE-SCHOOL

МАКТАБГАЧНА



Maktabgacha yoshdag'i bolalarda dislaliyadan tashqari boshqa nutq nuqsonlari ham uchrashi mumkin. Bunday nuqsonlar ko'pincha bosh miya faoliyati bilan bog'liq bo'ladi. Bosh miyaning perinatal yoki erta postnatal davridagi hatto engil darajadagi jarohati ham bolaning nutqiy rivojlanishida jiddiy muammolarni yuzaga keltirishi mumkin. Bunday holatlarda artikulyatsion apparatning inervatsiyasi buziladi va natijada tovushlarning og'ir darajadagi buzilishlari paydo bo'ladi. Shuningdek, nutq rivojlanishining sustligi, dastlabki nutq birliklarining kech shakllanishi kabi holatlar ham kuzatiladi. Bunday vaziyatlarda, eng avvalo, ota-onalar bolaning bosh miya jarohatlaridan asrab-avaylashi, zarurat tug'ilganda esa shifokorlarga o'z vaqtida murojaat qilishi muhimdir.

Bolaning bosh miyasi tug'ilgandan so'ng ham faol rivojlanishda davom etadi. Bu jarayon, asosan, 5 yoshgacha bo'lgan davrda sodir bo'ladi. 5 yoshdan keyin esa bosh miyada funksional assimetriya rivojlanadi, ya'ni nerv hujayralari o'z vazifalari va joylashuviga muvofiq tarzda miya yarimsharlariga taqsimlana boshlaydi. Shu sababli aynan shu davrda nerv hujayralarining kompensatorlik imkoniyati eng yuqori darajada bo'ladi.

Rivojlanishda inqirozli va senzitiv davrlar mavjud. Asab tizimi tashqi ta'sirlar asosida o'zgaradi, biroq bu o'zgarishlar o'tkinchi xarakterga ega bo'ladi. Bu holat, asosan, jadal morfo-funksional yetilish davrida tashqi omillarga sezuvchanlikning ortishi bilan bog'liq bo'lib, uni "yosh sezgirligi" fenomeni deb atash mumkin. Bunday davrlarda tashqi ta'sirlarga bo'lgan sezuvchanlik kuchaysa-da, bu davrlar mazmuni, sabablari, idrok xususiyatlari, xatti-harakatlardagi o'zgarishlar, ularning vaqtinchalik tabiatini va individual ifodalanishi bilan ajralib turadi.

"Inqirozli davr" atamasi dastlab embriologiyada fiziologik me'yordan chetga chiqqan tashqi omillarga nisbatan sezuvchanlikning oshgan davrini ifodalash uchun qo'llanilgan. Homila rivojlanishida har bir a'zo o'zining maxsus inqirozli davridan o'tadi. Aynan shu davrda salbiy omillar har qaysi a'zoning shakllanish jarayonini buzishi mumkin. Bu holat "rivojlanishning taqvimi bosqichlari" deb nomlangan video-diagnostik usullarda aniq ko'rindi. Eng og'ir holatlardan biri – turli nuqsonli bolalarning tug'ilishidir. Buning sabablaridan biri esa onanining homiladorlik davrida uyqu dori vositalarini iste'mol qilishi bo'lishi mumkin.

Senzitiv davrda modda almashinuvi jarayonlari o'sayotgan a'zolar va to'qimalarga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Homiladorlik davridagi inqirozli bosqichlar, odatda, jadal o'sish va morfologik farqlanish davrlariga to'g'ri keladi. Bu esa rivojlanish jarayonini bosqichma-bosqich aniqlash imkonini beradi. Inqirozli davrda organizm ma'lum darajada tashqi ta'sirlarni sezadi va bu holat uning keyingi normal rivojlanishi uchun zarur bo'ladi. Bunday o'zgarishlar ko'pincha qaytmas xarakter kasb etadi va keyingi davrlardagi sezuvchanlikni pasaytiradi.

"Senzitiv" atamasi esa rivojlanish faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim stimullarni ifodalaydi. Bu davrda organizm tashqi muhit ta'sirlariga nisbatan yuqori moslashuvchanlikni namoyon etadi. Inqirozli davr – "hozir yoki hech qachon", senzitiv davr esa – "hozir yaxshiroq, lekin boshqa paytda ham mumkin" degan mazmunga ega. Ontogenezda ushbu ikki davr malaka shakllanishi va unga tayyorlik nuqtayi nazaridan farqlanadi. Gree-nough va boshqalar (1987) ta'kidlaganidek, "kutilayotgan malakalar" tashqi muhitdagi trigger-signallarga bog'liq holda genetik asosda rivojlanadi. Bunday malakalar bir xil bo'lib, individual o'zgaruvchanlikka ega emas. Noto'g'ri shakllangan malakalar esa inqirozli davrda salbiy oqibatlarga olib keladi.

Maktabgacha yoshdag'i bolalarda nutqiy funksional tizimning barqaror emasligi, shuningdek, turli zararli omillarning mavjudligi og'zaki nutq rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha yoshdag'i bolalarning nutqiy rivojlanishida uchraydigan muammolar, xususan dislaliya kabi tovush buzilishlari, so'nggi yillarda logopediya fanida alohida e'tiborga loyiq masalalardan biri sifatida o'rganilmoqda. Ayupova M.Yu. o'zining "Logopediya" asarida dislaliya holatlarini tizimli tasniflab, uning fonetik-fonematisk rivojlanishga ta'sirini chuqur tahsil etadi. Unga ko'ra, dislaliya bolalarning 5–6 yosh oralig'ida 20–40 foiz atrofida kuzatiladi va ko'pincha ota-onalar va pedagoglarning yetarlicha e'tibor bermasligi sababli kech aniqlanadi.

Po'latxo'jayeva M.R. tomonidan ilgari surilgan yondashuvlarda esa nutq nuqsonlarining kelib chiqishida markaziy asab tizimi bilan bog'liq omillar muhim rol o'ynashi ta'kidlanadi. Muallif, ayniqsa, perinatal davrda yuzaga keladigan neyrofiziologik omillarni erta diagnostika qilish zarurligini uqtiradi.

Umarbekova Y.A. va Mo'minova L.R. maktabgacha ta'lif muassasalari va oilaning o'zaro hamkorligi orqali bolalarning nutqiy kamchiliklarini bartaraf etish mumkinligini asoslaydi. Ular nutq buzilishlarining psixologik va ijtimoiy oqibatlarni kamaytirishda kompleks yondashuvni samarali deb hisoblaydi.

Fayziyeva U. va hamkorlari esa surdopedagogika sohasida olib borgan izlanishlarida eshitish faoliyatining pasayishi natijasida yuzaga keladigan nutq nuqsonlari, ularning kompensatsiyasi va pedagogik yondashuv usullarini ko'rsatadi.

Nurkeldiyeva D.A. va Hamidova M.U. esa rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar diagnostikasini tahlil qilib, logopedik aniqlash testlari va zamонави baholash metodikasining ahamiyatini ilmiy asosda ochib beradi.

Ushbu manbalar nutq nuqsonlarini erta aniqlash, ularni bartaraf etishda logopedik va psixologik xizmatlarning o'rni, shuningdek, pedagogik va oilaviy muhitning muhimligini isbotlab beradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ma'lumotlar asosan ilmiy-nazariy manbalarni tahlil qilish orqali yig'ildi. Logopediya, defektologiya va bolalar psixologiyasi sohasidagi mavjud adabiyotlar, amaliy qo'llannmalar va ilgari o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar assosida mavzuga oid asosiy tushunchalar aniqlab olindi. Ma'lumotlar tanlanayotganda ularning dolzarbliji, ishonchliligi va O'zbekiston maktabgacha ta'lif tizimi sharoitlariga mosligi inobatga olindi. Tahlil qilishda taqqoslash, sistemalashtirish va tavsifiy tahlil usullaridan foydalanildi. Ayniqsa, dislaliya va boshqa nutq nuqsonlarining tarqalish holatlari, ularning sabablari va oqibatlari bo'yicha mavjud statistik ma'lumotlar solishtirildi. Tadqiqotning natijalari esa mavzuga oid nazariy qarashlar bilan muvofiqlashtirildi va tahliliy xulosalar chiqarishga xizmat qildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Nutq funksiyasining rivojlanishida uchta keskin davr ajratiladi:

Birinchi davr (hayotining 1–2 yilligi). Bu davrda nutqning dastlabki shakllanishi boshlanadi, bola muloqotga kirishishga intila boshlaydi. Bu davrda muloqot ehtiyoji kuchayadi, ayni paytda nutq zonasining, xususan, Broka zonasining faol rivojlanishi kuzatiladi. Bola hayotining 14–18 oylik davri ushbu jarayon uchun eng sezgir bosqich hisoblanadi. Hatto noaniq ko'rning tashqi salbiy omillar ham nutq rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ikkinci davr (3 yosh). Bu bosqichda bog'langan nutq jadal rivojlanadi, ya'ni vaziyatli nutqdan kontekstli nutqqa o'tiladi. Bu esa markaziy nerv sistemasining (MNS) muvofiqlashtirilgan faoliyatini talab qiladi. Jumladan, nutq-harakat mexanizmi, diqqat, xotira va boshqa psixik funksiyalarning uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etadi. MNSdagi nomuvofiqliklar esa xatti-harakatdagi o'zgarishlarga sabab bo'ladi: qaysarlik, negativizm, qarshilik ko'rsatish va boshqa xulqiy buzilishlar yuzaga keladi. Bu esa bola muloqotdan voz kechishiga, kattalar talablariga norozilik bilan javob berishiga olib kelishi mumkin.

Ushbu davrda yuzaga keladigan duduqlanish nutq funksional tizimi va boshqa psixik funksiyalarning notejis shakllanishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Adabiyotlarda bu holat "evolyutiv duduqlanish" atamasasi bilan izohlanadi, ya'ni yoshga xos rivojlanish bosqichida kuzatiladigan holat sifatida baholanadi.

Uchinchi davr (6–7 yosh). Bu bosqichda yozma nutq shakllanishi boshlanadi. Bolaning markaziy nerv tizimiga tushadigan yuklama oshadi. Talablar ortgan sari duduqlanish holatlari yana kuchayishi mumkin. Bu esa MNS faoliyatida "portlash" holatini keltirib chiqaradi. Boladagi mavjud nutq funksiyalaridagi har qanday buzilishlar ushbu davrda yanada yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu bilan birga, yangi nutq kamchiliklari ham vujudga kelishi mumkin.

Logopedlar bolaning nutqiy rivojlanishidagi ushbu keskin davrlarni chuqr bilishi va kundalik ish faoliyatida bu jihatlarni hisobga olishi lozim.

Nutq rivojlanishidagi keskin davrlar bolaning moyilligini shakllantiradi. Bu bosqichlar mustaqil ahamiyatga ega bo'lishi bilan birga, genetik omillar, bolaning umumiyligi va boshqa tashqi zararli ta'sirlar bilan uyg'unlashganda yanada murakkab holatni yuzaga keltiradi. Hayotining ilk yillarda bolaning nutqiy rivojlanishi genotip va unga ta'sir qiluvchi atrof-muhit omillariga bevosita bog'liq holda o'zgarib turadi. Nutq funksional tizimining normal shakllanishi uchun MNSning to'liq yetukligi va faol ishlashi zarur.

Nutq buzilishlarining kelib chiqishida, ayniqsa, ekzogen (tashqi) va organik omillar muhim rol o'yynaydi. M.Ye. Xvatsev tasnifi bo'yicha ushbu sabablar jarohat joyiga qarab ikki guruhga ajratiladi: organik markaziy va organik periferik omillar.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq nuqsonlarining oldini olish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda kompleks va tizimli yondashuv talab etiladi. Nutq nuqsonining mavjudligi bolaning psixik holatida ikkilamchi buzilishlarga olib kelishi mumkin. Bunday holatlarga muloqotga kirishishdan uyalish, asabiyashish, o'z fikrini to'liq ifodalay olmaslik kabi psixologik muammolar kiradi.

Agar bola jismoni va ruhiy jihatdan sog'lom rivojlanayotgan bo'lsa, uning nutqiy rivojlanishi ham norma doirasida kechadi. Bu esa yuqorida qayd etilgan salbiy holatlarning oldini oladi. Natijada bolaning boshqa insonlar bilan muloqotga kirishish qobiliyati oshadi, ijtimoiy moslashuvi yaxshilanadi va aqliy rivojlanishida ham ijobjiy siljishlar kuzatiladi.

### Takliflar:

1. Maktabgacha ta'lif muassasalarida logopedik xizmatlarning qamrovini kengaytirish;
2. Ota-onalar uchun nutq rivoji va uni buzilishlaridan himoyalash bo'yicha ma'rifiy seminarlar tashkil etish;

3. Dislaliya va boshqa nutq buzilishlarining erta aniqlanishi uchun maxsus diagnostik testlardan foydalanishni yo'lga qo'yish;
4. Maktabgacha yoshdagи bolalarda nutq rivojini rag'batlantirishga qaratilgan o'yinlar, mashqlar va audio-vizual vositalardan keng foydalanish;
5. Tibbiy-profilaktik chora-tadbirlarni, jumladan, homiladorlik davridan boshlab sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish orqali perinatal xavflarni kamaytirish.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ayupova M.Yu. Logopediya. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007.
2. Umarbekova Y.A., Mo'minova L.R. Alovida ehtiyojga ega bolalarga majmuaviy xizmatlar ko'rsatishda mutaxassislar va ota-onalar hamkorligi. – 2016.
3. Po'latxo'jayeva M.R. Defektologiyaning klinik asoslari. – Toshkent, 2013.
4. Fayziyeva U., Nazarova D., Qodirova F. Surdopedagogika. – 2012.
5. Nurkeldiyeva D.A., Hamidova M.U. Rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar diagnostikasi. – Toshkent, 2016.

- 
- 13.00.00** Pedagogika fanlari
  - 13.00.01** Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'lilotlar tarixi
  - 13.00.02** Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03** Maxsus pedagogika
  - 13.00.04** Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05** Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06** Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07** Ta'limda menejment
  - 13.00.08** Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09** Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00** Tarix fanlari
  - 19.00.00** Psixologiya fanlari
  - 01.00.00** Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00** Kimyo fanlari
  - 03.00.00** Biologiya fanlari
  - 09.00.00** Falsafa fanlari
  - 10.00.00** Filologiya fanlari
  - 11.00.00** Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №7**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.